

“RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA UNUTILISH HUQUQI”

Botirova Moxinabonu Muhammadzafar qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

1-bosqich “Xalqaro Huquq” talabasi

e-mail: mokhinabotirova0620@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli muhitda shaxsiy ma’lumotlar bilan bog’liq muammolar, xususan “unutilish huquqi”ning (right to be forgotten) xalqaro tajriba hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida yuridik va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqi va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarning normativ-huquqiy bazasi va sud amaliyoti misolida unutilish huquqining qo‘llanish holatlari tahlil qilinadi. Maqola global yondashuvlarni O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlari, qonuniy me’yorlari va ijodiy innovatsion g‘oyalari bilan uyg‘unlashtiradi. Shuningdek, maqolada axborot erkinligi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi va raqamli dunyo sharoitida fuqarolarning o‘zini anglashidagi transformatsiyalar tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** unutilish huquqi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, O‘zbekiston qonunchiligi, raqamli innovatsiyalar, axborot erkinligi*

Raqamli transformatsiya sharoitida fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini boshqarish dolzarb masalaga aylangan. Internetda inson faoliyatining izlari — jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, fotosuratlar, maqolalar doimiy saqlanishi va keng auditoriyaga tarqalishi natijasida shaxsiy hayot daxlsizligi xavf ostida qolmoqda (Solove, 2008). Ushbu sharoitda “unutilish huquqi” (RTBF) insonning raqamli izlarini nazorat qilish huquqi sifatida maydonga chiqmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xususan “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi

qonun (Toshkent sh.,2019-yil 2-iyul.)¹ va “Raqamli iqtisodiyot” konsepsiyasi (2023-yil) kabi normativ hujjatlar orqali fuqarolarga o‘z shaxsiy axborotlari ustidan nazoratni tiklash, ularni o‘zgartirish, to‘xtatish va o‘chirish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etmoqda. Shu munosabat bilan unutilish huquqi nafaqat global miqyosdagi model, balki milliy qonunchilik va ijtimoiy madaniyat nuqtai nazaridan ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu kontekstda unutilish huquqi – shaxsning o‘tgan hayotining zararli yoki endi dolzarb bo‘lmagan qismlarini raqamli makondan “o‘chirish” talabi. U nafaqat yuridik, balki ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan ham dolzarb muammo sifatida e’tirof etiladi.

Unutilish huquqining xalqaro huquqiy va milliy qonunchilikdagi asoslariga to‘xtaladigan bo‘lsak, insonning shaxsiy hayoti, obro‘-e’tibori va xavfsizligini saqlash uchun ushbu huquq turli mamlakatlarda turlicha qo‘llaniladi. “Unutilish huquqi” birinchi marta Yevropa Ittifoqi Sudining 2014-yildagi “Google Spain SL, Google Inc. v Agencia Española de Protección de Datos” ishida mustahkamlangan (CJEU, 2014)². Sud qaroriga binoan, fuqarolar o‘zlari haqidagi ma’lumotlarning qidiruv tizimlari orqali tarqalishini cheklash huquqiga ega deb topildi. Bu huquq Yevropa Ittifoqining 2016-yil 27-apreldagi Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti 17-moddasida alohida belgilangan bo‘lib, u ma’lumot subyektiga “shaxsiy ma’lumotlarni o‘chirish huquqi”ni beradi (European Parliament, 2016). Shuningdek, ushbu huquq AQShda ham muhokama qilinayotgan bo‘lsa-da, u yerda so‘z erkinligi masalalari tufayli ancha murakkab tarzda qaralmoqda. AQSh konstitutsiyasida so‘z erkinligi ustuvor prinsip sifatida belgilangan bo‘lib, bu RTBF g‘oyasining keng tatbiq etilishiga to‘sqinlik qiladi. Amerika

¹ <https://lex.uz/docs/-4396419>

² <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ALL/?uri=CELEX:62012CJ0131>

yurisdiksiyasida shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, odatda, maxfiylik siyosatlari va iste'molchi huquqlari doirasida ko'riladi (Tene & Polonetsky, 2013). Boshqa mamlakatlarda masalan, Hindiston va Argentina kabi mamlakatlarda RTBF qisman sud qarorlari orqali e'tirof etilgan. Google, Facebook va boshqa texnologik gigantlar ham unutilish huquqiga doir so'rovlarni ko'rib chiqish tartiblarini ishlab chiqqan. Masalan, Google'da foydalanuvchilar maxsus forma orqali o'z ma'lumotlarini o'chirishni talab qilishlari mumkin. O'zbekiston tajribasiga keladigan bo'lsak, O'zbekistonda unutilish huquqi bo'yicha maxsus qonuniy normalar hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va internetdagi ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha muayyan qadamlar tashlangan. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni shaxsiy hayotni himoya qilishga qaratilgan bo'lib, bunda shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tarqatishning huquqiy asoslari belgilangan. Ushbu qonun doirasida shaxs o'z ma'lumotlarini noqonuniy tarqatilishidan himoya qilish va ularni o'chirish bo'yicha talab qo'yish huquqiga ega. Hozirgi kunda esa O'zbekistonda raqamli xavfsizlik va axborotni himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan internetdagi noqonuniy kontentni nazorat qilish hamda foydalanuvchilarga o'z shaxsiy ma'lumotlarini o'chirish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Kelajakda O'zbekistonda unutilish huquqini aniq belgilovchi qonunchilikni rivojlantirish, internet kompaniyalari va davlat idoralarining hamkorligini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Xalqaro tajribadan foydalangan holda, maxsus platformalar va mexanizmlar orqali fuqarolarga o'z ma'lumotlarini o'chirish imkoniyatlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda. Bu jihatlar

O‘zbekistonda unutilish huquqining shakllanish jarayoni va amaliy qo‘llanilishini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Ilgari adabiyotlarda unutilish huquqi asosan qidiruv tizimlaridan shaxsiy ma’lumotlarni olib tashlash vositasi sifatida talqin etilgan. Ammo O‘zbekiston kontekstida bu tushuncha yanada kengaytirilishi lozim. Masalan, shaxsiy hayotni himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va “raqamli reintegratsiya” konsepsiyasi nuqtai nazaridan, unutilish huquqi quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Birinchidan, sub’ektiv nazoratning qayta tiklanishi ya’ni fuqarolar O‘zbekistonning qonunchilik tizimi orqali o‘z shaxsiy ma’lumotlari ustidan nazoratni tiklab, ularning dolzarbligi va ishonchliligini ta’minlashlari mumkin. Bu jarayonda shaxsiy ma’lumotlarni o‘zgartirish, anonimlashtirish yoki to‘liq o‘chirish imkoniyatlari kengaytiriladi. Ikkinchidan, ijtimoiy innovatsiyalar. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida yaratilgan yangi platformalar yordamida, noto‘g‘ri yoki zararli axborotlarni “qayta tiklash” va tarqatishning oldini olishga yo‘naltirilgan mexanizmlar ishlab chiqilishi mumkin. Bu yondashuv orqali, axborotning ijtimoiy qadriyatlarini hisobga olgan holda, raqamli makonda to‘g‘ri tarqatilishini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Uchinchidan, yuridik kafolatlar va protsessual mexanizmlar. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi sud amaliyotida, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga doir qonunchilikda, unutilish huquqi doirasida aniq protseduralarni belgilash zarurligi ta’kidlanadi. Shu jumladan, sud qarorlari, ma’lumotlarni o‘chirish so‘rovlarini ko‘rib chiqish jarayoni va qidiruv tizimlari javobgarligini oshirish choralari mavjud bo‘lishi lozim. Bu yondashuvlar nafaqat global tajribaga asoslangan, balki O‘zbekistonning yuridik madaniyati va innovatsion g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan holda, yangi huquqiy mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Internetning cheksiz xotira sifatida faoliyat yuritishi shaxsiy hayotni nazorat qilishning murakkabligini yanada oshiradi. Shaxsiy ma'lumotlar tarqalishi va ularning abadiyligi, nafaqat qonuniy balki madaniy jihatdan ham shaxsning o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni asosida, fuqarolarga o'z shaxsiy axborotlari ustidan yanada mustaqil nazorat o'rnatish, shaxsiy hayotning axborot oqimi bilan uyg'unlashishini ta'minlash imkoniyati yaratilishi lozim. Innovatsion yondashuvlar doirasida, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va ularni yangilash jarayonida sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari va raqamli identifikatsiya tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganilmoqda. Bu texnologiyalar yordamida, ma'lumotlar oqimi nazorat ostida bo'lib, unutilish huquqi doirasida shaxsiy hayotni himoya qilish va tarixiy axborotning adolatli aks etishini ta'minlash mumkin. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasida zamonaviy standartlarga mos keladigan qator normativ hujjatlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Unutilish huquqining samarali qo'llanilishi uchun bir necha chora-tadbirlar muhim deb hisoblanadi. Bulardan eng asosiysi, normativ asoslarni mustahkamlash bo'lib, shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida qonunlar, Konstitutsiyamizdagi himoya tamoyillari va xalqaro standartlar asosida, unutilish huquqining qamrovini kengaytiradi. Shu jumladan, shaxsiy axborotni qayta ishlash, o'chirish va anonimlashtirish jarayonlariga doir protseduralar qat'iy belgilanishi ta'minlaydi. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ham muhim hisoblanadi. Sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari yordamida, ma'lumotlarni yangilash, o'chirish va arxivlash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali shaxsiy hayotni himoya qilishni yanada samarali tashkil etishligi mumkin. Bundan tashqari, yuridik javobgarlikni aniq belgilash ham yaxshi samara berishi

mumkin. Masalan, qidiruv tizimlari, axborot platformalari va ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan, shaxsiy ma'lumotlar ustidan nazoratni yo'lga qo'yish uchun aniq yuridik mexanizmlar ishlab chiqish va sud qarorlari asosida javobgarlikni ta'minlash.

Unutilish huquqini joriy etishda tanqidlar ham mavjud, ba'zi tanqidchilar axborot erkinligi va tarixiy axborotning to'liq aks etishini cheklash xavfi haqida ogohlantirishadi. Shuningdek, protsessual kafolatlar va sud amaliyotidagi notekisliklar bu huquqning samarali qo'llanilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Biroq, innovatsion texnologiyalar va yangi yuridik modellar asosida, bunday kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyati mavjud. O'zbekistonning milliy qonunchiligida bu borada takomillashtirishlar kiritish, shaxsiy hayotni himoya qilish bilan ijtimoiy manfaatlar o'rtasida ideal muvozanatni yaratishga xizmat qiladi. Kelgusida, global tajriba va milliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali unutilish huquqi nafaqat shaxsiy ma'lumotlar himoyasini mustahkamlash, balki raqamli madaniyat va jamoatchilik ongini boyitishga ham yordam beradi. Raqamli davrda unutilish huquqi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot oqimini tartibga solish va insonning o'zini anglash jarayonini yangicha talqin etishda dolzarb vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun va "Raqamli iqtisodiyot" konsepsiyasi asosida, innovatsion texnologiyalar va mahalliy yondashuvlar yordamida bu huquqning samarali joriy etilishi va fuqarolarning axborot ustidan nazoratini tiklash istiqbollari mavjud. Kelgusida, normativ hujjatlar, sud amaliyoti va innovatsion texnologiyalar orqali shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axborot erkinligi o'rtasidagi ideal muvozanatni yaratish, shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish orqali unutilish huquqini yanada rivojlantirish mumkin bo'ladi. Axborot erkinligi va shaxsiy

SJIF: 5.051

daxlsizlik o'rtasidagi muvozanat ham muhim hisoblanadi. Unutilish huquqi axborot erkinligi prinsipiga zid kelmasligi lozim. Shu sababli, xalqaro amaliyotda ushbu huquq "balanslashtirish testi" orqali qo'llaniladi. Ya'ni, jamoatchilik manfaatlari va individual daxlsizlik manfaatlari solishtirilib, ustuvorlik aniqlanadi (Kulk, 2017).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, unutilish huquqi — raqamli asrda inson daxlsizligini ta'minlash yo'lida muhim vosita. Biroq uning amalga oshirilishi ko'plab huquqiy, texnologik va ijtimoiy muammolar bilan to'qnash keladi. O'zbekistonda bu huquqning to'liq shakllanishi uchun normativ-huquqiy asoslar, sud amaliyoti, va texnologik infratuzilmaning uyg'un rivojini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.European Parliament. (2016). "General Data Protection Regulation (GDPR)". Regulation (EU) 2016/679.

2.Kulk, S. (2017). "The European Court of Justice and the Right to be Forgotten: Balancing Interests in the Digital Age". Journal of Media Law, 9(2), 169–186.

3.Solove, D. J. (2008). "The Future of Reputation: Gossip, Rumor, and Privacy on the Internet". Yale University Press.

4.Tene, O., & Polonetsky, J. (2013). "Big Data for All: Privacy and User Control in the Age of Analytics". Northwestern Journal of Technology and Intellectual Property, 11(5), 239–273.